

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	52 219	120,4 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	48 804	119,4 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvarda)	3 352	135,5%

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil yanvar-mart oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2022- yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,2 foizga oshdi**




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




*Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,4** foizga oshdi*




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'zgarmagan







Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 10 284 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 456 taga yoki 31,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 9 522 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 200 taga yoki 30,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 759 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 3,8 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


11



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 688 tani tashkil etib, ulardan 668 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 66 taga yoki 11,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida 28 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



**Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	shundan:	
		Qo'shma korxona	xorijiy korxona
<i>Samarqand viloyati</i>	668	440	228
<i>Afg'oniston</i>	49	18	31
<i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>	100	73	27
<i>Eron Islom Respublikasi</i>	32	21	11
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	18	14	4
<i>Janubiy Koreya Respublikasi</i>	44	29	15
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	96	62	34
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	15	11	4
<i>Turkiya Respublikasi</i>	112	69	43
<i>Amerika Qo'shma Shtatlari</i>	22	17	5
<i>Boshqalar</i>	180	126	54

Viloyatda 2022-yil 1-aprel holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 668 tani tashkil etadi, shundan 440 tasi qo'shma korxonalar, 228 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 112 ta, shundan 69 tasi qo'shma korxonalar, 43 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 100 ta, shundan 73 tasi qo'shma korxonalar, 27 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 96 ta, shundan 62 tasi qo'shma korxonalar, 34 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – aprel holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdiridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 16,7 %, Xitoy Xalq Respublikasi 15,0 %, Rossiya Federatsiyasi 14,4 %, Afg'oniston 7,3 % Janubiy Koreya Respublikasi 6,6 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

14

**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	668	440	228
Samarqand sh	299	172	127
Kattaqo'rg'on sh	22	18	4
tumanlar:			
Oqdaryo	34	26	8
Bulung'ur	23	11	12
Jomboy	50	37	13
Ishtixon	17	11	6
Kattaqo'rg'on	14	10	4
Qo'shrabot	22	10	12
Narpay	5	4	1
Payariq	19	12	7
Pastdarg'om	31	24	7
Paxtachi	10	6	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahri – 299 ta (umumi miqdoridagi ulushi 44,8 %), Jomboy – 50 ta (7,5 %), Oqdaryo – 34 ta (5,1 %) hamda Pastdarg'om tumanlarida 31 tani (4,6 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Narpay – 5 ta (0,7 %), Paxtachi 10 ta (1,5 %) hamda Kattaqo'rg'on 14 tani (2,1 %) ni tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (28,4 %), Urgut (8,4 %), Pastdarg'om (8,5 %), Samarqand (7,5 %), Payariq (5,3 %), Ishtixon (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Oqdaryo (4,3 %), Toyloq (4,3 %), Bulung'ur (4,1 %), Jomboy (4,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,3 %), Narpay (3,2 %), Nurobod (3,1 %), Paxtachi (2,8 %) va Qo'shrabot (2,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,0%), Pastdarg'om (7,6%), Urgut (7,6%), Samarqand (9,1%), Ishtixon (6,4%), Oqdaryo (5,1%), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Payariq (4,6%), Toyloq (4,6%), Jomboy (4,6 %), Bulung'ur (4,7 %), Nurobod (3,8 %), Paxtachi (3,0 %), Narpay (3,3 %), Kattaqo'rg'on shahri (2,8%) va Qo'shrabot (2,6 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar

(2022- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)


16



2022- yilning yanvar-mart oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (16,7 %), Pastdarg'om (10,1 %), Samarqand (6,9 %), Payariq (8,7 %), Kattaqo'rg'on (12,4 %), Oqdaryoda (5,1 %), Urgut (6,5 %), Jomboy (7,0%), Bulung'ur (7,4 %), Toyloq (2,8 %), Ishtixon (4,0 %), Narpay (4,3 %), Qo'shrabot (2,6 %), Kattaqo'rg'on shahar (1,6 %), Paxtachi (3,5 %) va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022– yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. The top navigation bar includes links for 'RSS', 'Bayraq', 'Gerb', 'Madhiya', 'Shaxsiy kabinet', and social media icons. Below the title, there are language links: 'Ozbek', 'Русский', and 'English'. The main menu includes 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar at the top right has 'Qidirish' and 'Qidirish' buttons. The central content area features a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' with links to various statistical reports. A search form in the center allows users to enter a 'Rasmdag'i kodni kiriting' (registration number) and click 'Qidiruv' (Search). A dropdown menu is open over the search form, listing categories such as 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulby materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar' (highlighted in blue), 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. To the right, there is a section titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' with links to various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish

bo'limi

Tel.: 66 235-14-42